

**Korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens maxsus boshqarmasining
2025-yil davomida “Turonbank” ATB xodimlarining Korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha milliy qonunchilik talablari va xalqaro standartlar,
komplaens menejmentga muvofiqlikni ta’minlashdagi dolzarb masalalar
hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha bilim va malakasini
oshirish yuzasidan o‘quv seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish**

DASTURI

1. O‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish tartibi.
2. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi.
3. O‘quv mashg‘ulotni o‘tkazish muddati.
4. O‘quv mashg‘ulotini o‘tkazishga mas’ul xodimlar.
5. Bankning hududiy bank xizmatlari markazlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini hamda hududiy Komplaens ofitserlari faoliyatini o‘rganish.

1. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish tartibi. O‘quv mashg‘ulotlari bankning Chakana biznes bo‘limi, Kichik biznes bo‘limi, Bank xizmatlari markazi, Kreditlar monitoringi bo‘limi va boshqa mijozlar bilan ishlovchi mas’ul ijrochi xodimlari ishtirokida joylarda mijozlar bilan ishlovchi mas’ul xodimlariga Korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens maxsus boshqarma xodimlari, komplaens ofitserlar tomonidan seminar-treninglar shaklida o‘tkaziladi. Bundan tashqari, bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Sud va HMQO ma’sul xodimlari, shuningdek, ekspertlar bilan hamkorlikda maxsus o‘quv kurslari ham tashkillashtiriladi.

2. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari hamda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik bo‘yicha ularga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalar hamda xalqaro standartlar jumladan;

- Birlashgan Millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga Qarshi Konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr);
- O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi O‘RQ-419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-son qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 829-son qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 06 iyuldagi PQ-5177-son bilan ro'yxatga olingan Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining buyrug'i, 08.09.2021-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami №3319 "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy Nizom";

- O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi 08.08.2023-yildagi O'RQ-860-sonli Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21.06.2024-yildagi PQ-228-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 30.10.2024-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami №3565-qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21.04.2025-yildagi PQ-147-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 21.04.2025-yildagi PF-71-sonli Farmoni;

- ISO 37001:2025 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standarti.

3. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazish muddati. O'quv mashg'ulotlari o'quv reja grafikida belgilangan tartibda va muddatlarda Bosh ofis va bankning hududiy bank xizmatlari markazlarida tegishli rahbar va mas'ul xodimlar ishtirokida o'tkaziladi.

4. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga mas'ul bo'lgan xodimlar.

- Komplaens nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi mas'ul xodimlari;
- Xodimlarni boshqarish departamenti va O'quv markazi;
- Komplaens nazorat departamentining hududiy komplaens ofitserlari.

5. Bankning hududiy bank xizmatlari markazlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini hamda hududiy Komplaens ofitserlari faoliyatini o'rganish.

- O'rganish maqsadi: qonunbuzarliklarni aniqlash, tavsiyalar ishlab chiqish;
- O'rganish uslubi: so'rovnomalar, suhbatlar, tekshiruvlar, monitoring, tahlillar.
- O'rganish natijasi: Hisobot (*Bank Boshqaruvi va Kuzatuv Kengshiga ma'lumotnoma*).

Izoh: Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida bankning maxsus o'quv dasturida qo'llanma va elektron targ'ibot materiallari joylashtirilgan. Yil yakunida barcha bank xodimlari test sinovidan o'tkaziladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
komplaens maxsus boshqarmasi
boshlig'i**

S.Sh.Kamilov

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
komplaens maxsus boshqarmasi
bosh mutaxassis**

X.H.Zikirov